**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM**
**VAZIRLIGI**
**SAMARAQAND DAVLAT**
**UNIVERSITETI**

Ro'yxatga olindi:
№ FD-60230600 – 2.03
2021- yil "__"_____

**"TASDIQLAYMAN"**
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2021- yil "__"_____

# O'ZBEK YOZUVI TARIXI
## FAN DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200000 – Gumanitar soha |
| **Ta'lim sohasi:** | 230000- Gumanitar fanlar |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 60230600 – Noshirlik ishi |

Fan dasturi SamDU O'zbek tilshunosligi kafedrasining 2021-yil _____dagi ____-son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri:** **dots. Sh.Mahmadiyev**

Fan dasturi Filologiya fakulteti o'quv-uslubiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil _____dagi _____sonli bayonnoma).

**Fakultet o'quv-uslubiy kengash raisi:** **dots. Sh.Mahmadiyev**

Fan dasturi Filologiya fakulteti Ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil _____dagi _____sonli bayonnoma).

**Fakultet ilmiy kengash raisi** **prof. A.Pardayev**

**Kelishildi:**
**SamDU o'quv ishlari bo'yicha propektor** **prof. A.Soleyev**

| Fan/modul kodi<br>*O‘YTT 4003* | O‘quv yili<br>2023-2024 | Semestr<br>6 | ECTS – Kreditlar<br>6 | |
|---|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi** | **Ta’lim tili**<br>O‘zbek | | **Haftadagi dars soatlari** | |
| **1.** | **Fan nomi** | **Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta’lim (soat)** | **Mustaqil ta’lim (soat)** |
| | O‘zbek yozuvi tarixi | 75 | 105 | |

2. **I. Fanning mazmuni**

**“O‘zbek yozuvi tarixi” fanini o‘qitishdan maqsad:** talabalarga O‘zbekistonda amalga oshirilgan yozuv va imlo bilan bog‘liq bo‘lgan islohotlarning eng muhim hamda bir qator o‘ziga xos xususiyatlari: fonematik, fonetik, etimologik va morfologik va tamoyillarning tabiati haqida batafsil tushuncha va ma’lumot berish, zarur sharoitlarda ulardan amalda foydalanish malakasini shakllantirish, o‘zbek yozuvining tarixiy taraqqiyotini va tarixiy davrlarda ajdodlarimiz foydalangan yozuvlar va ularning turlarini o‘rgatishdan iborat.

**Fanning asosiy vazifalari:** Maqsadni amalga oshirish uchun mazkur maxsus kursda quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilab olingan:

talabalar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va nufuzi to‘g‘risida tasavvuraga ega bo‘lishi;

o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug‘ ajdodlarimizning bor merosiga vorislik ruhida tarbiyalash va tushuntirib bera olish darajasida bilishi;

mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlash maqsadida lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini mukammal bilish malakasiga ega bo‘lishi;

tarixiy taraqqiyot davomida ajdodlarimiz foydalangan yozuvlar haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishi;

Yozuv va uning turlari haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishi lozim.

**II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

**1-mavzu: “O‘zbek yozuvi tarixi” fanining maqsad va vazifalari.**

“O‘zbek yozuvi tarixi” fanining “O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi bo‘yicha pedagoglar tayyorlashdagi ahamiyati. “O‘zbekistonda yozuv va imlo islohotlari” kursining maqsadi va vazifalari. Alfavit va imlo milliy tilning ya’ni, o‘zbek adabiy tilining asosi ekanligi. Tilshunoslikda alfavit, imlo haqidagi asosiy tushunchalar.

**2-mavzu: Insoniyat tarixida yozuvning tutgan o‘rni.**

**Yozuv va uning turlari.**

Alfavit va imlo tushunchalari. Milliy alfavit, odatda, qadimgi yozuvlardan biridan milliy tilga moslangan holda “o‘sib chiqadi” yoki boshqa xalqlardan ma’lum tarixiy shart-sharoitlar taqozosi bilan qabul qilinishi. Imlo – grafika (harflar tizimi) hamda orfografiya (ma’lum tartib-qoidalar asosida yozish)ni o‘zida jamlovchi vosita sifatida. Grafika. Piktografik, ideografik, logografik, fonografik, mixxat, oromiy, so‘g‘d va boshqa yozuvlar.
Qadimgi turkiy yozuvlar. Turkiy-run yozuvi va uning topilish tarixi haqida. Turkiy-run alifbosining ildizlari. Talas yozuvi. Runiy alifbo xususiyatlari.

**3-mavzu:Turkiy run yozuvining topilishi va o‘rganilishi**

Oromiy yozuvi ta’sirida paydo bo‘lgan bo‘lib, unda 26 harf. Yenisey qirg‘izlari, sharqiy turklar. Bu yozuvning borligi fan olamiga XIII asrdagina malum bo‘ladi. Ularning namunalari Enasoy daryosi bo‘yidan topilgan. XIX asr oxirida esa rus sayyohi va yozuvchisi N.M.Yadrinsev. Urxun daryosi bo‘yidan shu xildagi yozuvlarni topilishi. Tuzilishi jihatidan german runik yozuvlariga o‘xshaganligi uchun runiy yozuv. Urxun va Enasoy daryolaridan topilgan urxun-enasoy yozuvi.

**4-mavzu: Turkiy-run yozuvining guruhlarga bo‘linishi**

Turkiy-run yozuvining guruhlarga bo‘linishi. Tis guruhi alifbosi. Yevroosiyo guruhi alifbosi. Osiyo guruhi alifbosi. Ularning o‘xshash va farqli xususiyatlari.

**5-mavzu: Uyg‘ur yozuvi va uning grafik xususiyatlari**

Qadimgi uyg‘ur yozuvidagi yodgorliklar. Uyg‘ur yozuvining o‘ziga xosligi. Uyg‘ur yozuvida unlilar soni. Uyg‘ur yozuvida undoshlar. Uyg‘ur yozuvidagi 19 ta belgi.

**6-mavzu: Arab yozuvi va alifbosi**

XI-XIV asrlar. Turkiy yozma obidalar. Arab yozuvidagi yodgorliklar. Arab yozuvining o‘ziga xosligi. Arab yozuvida unlilar soni. Arab yozuvida undoshlar. Arab yozuvidagi belgilar.

**7-mavzu: Jadidlarning til, yozuv va imlo xususidagi qarashlari.**

“Jadidchilik harakati” nomi bilan kirgan islohotchilik, jadidchilik eng avvalo ma’rifatparvarlik harakati sifatida paydo bo‘lgani uchun jadidlar o‘z faoliyatlarini maktablar ochish, darsliklar yozish va matbuot nashrlarini chiqarish bilan boshladilar. Jadidlar, milliy maktab va milliy matbuot yaratish uchun kurashga kirishish, milliy hayotning ikki ajralmas jabhasida milliy tilni rivojlantirish, yangi adabiy tilni shakllantirish orqali muvaffaqiyatga erishish, ona tilida ta’lim olish huquqi.

**8-mavzu: Alfavit almashtirish davrining boshlang‘ich bosqichi.**

Bu davrda amalga oshirilgan eng ahamiyatli o‘zgarishlardan biri til, yozuv va imlo islohotlaridir. o‘zbeklar, turkmanlar hamda qoraqalpoqlar, yozuvlarini uch marta almashtirish, (1929, 1940, 1993), boshqa xalqlar - qozoqlar, qirg‘izlar va tojiklar ikki marta (1929, 1940) almashtirish, yozuv almashtirish fenomeni, harakatlantiruvchi kuch.

**9-mavzu: Lotin yozuviga o‘tish: masalaning tarixi, sabablari, oqibatlari.**

Yozuvni almashtirish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirish, yozuvni almashtirish g‘oyasi o‘z jamiyatini isloh qilishni istagan xalqlarning tashabbusimi, yozuvni almashtirishning til tabiati va yozuv tiplari masalasi bilan aloqasi, yozuv islohoti, 1928-yil, til islohotining boshlanishi, 1932-yil, 20-asrning siyosiy va iqtisodiy voqeliklari bilan bog‘liq ekanligi.

**10-mavzu: Kirill yozuviga o‘tish: masalaning sabab va omillari.**

Kirill yozuviga o‘tish: masalaning sabab va omillari. Sobiq sovet xalqining umumiy til va umumiy yozuv masalasi. O‘zbek yozuvi taraqqiyotining oliy bosqichi. Yozuvga isloh kiritishga urinishlar.

**11-mavzu. Yangi o‘zbek lotin alfaviti: uning qonuniy asoslari**

Yangi lotin alifbosiga o‘tishning ijtimoiy shart-sharoitlari. 1989-yil 21 oktyabrida – “O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi haqida”gi Qonun qabul qilinishi. 1993- yil 2-sentyabrda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinishi. “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga o‘zgartirishlar kiritish va uning tasdiqlanishi.

**12-mavzu: Yangi alifboni joriy etish: natijalar va saboqlar.**

Lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosining takomili va taraqqiyoti. Uning jamiyat tizimida qo‘llanilish masalalari. Mazkur alifboning fan va ta’lim tizimidagi ahamiyati. Uning davlat, jamoat va nodavlat tashkilotlarida qo‘llanilish masalasi. Bu boradagi jamoatchilik va soha mutaxassislarining qarashlari. Til va imlo masalalarining mafkuraviy, milliy va ijtimoiy-siyosiy xususiyatlari. Lotin alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuvining yutuq va muammolari.

**13-mavzu: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi 1995-yil 24-avgustda 339-sonli “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida” qaror to‘g‘risida.**

O‘zbekiston, 1989 yil 21 oktabr, el-yurt asrlar davomida orzu qilib, intilib va kurashib kelgan davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi, mamlakat suverenteti va mustaqilligi sari qo‘yilgan qadam, O‘zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga egaligi, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi, 21-oktabr sanasi “O‘zbek tili bayrami kuni” deb e’lon qilinishi, takliflar, maqullanish.

**14-mavzu: Imlo masalasi. Orfografiya va uning tamoyillari.**

Fonematik tamoyil, har qanday fonemaning so‘zdagi o‘rnidan qat’iy nazar faqat bitta harf bilan ifodalanishini taqozo etadi. Masalan, o‘zbek tilidagi "maktab" va "maktabi" so‘zlaridagi "b" tovushi talaffuzidan qat’iy nazar bir xil "b" harfi bilan ifodalanadi.

Fonetik tamoyil - harf yordamida real talaffuz qilinadigan tovushning ifodalanishini taqozo qiladi, uning asosida "qanday eshitilsa, shunday yoziladi" degan qarash yotadi. Tillardagi aksar so‘zlarning talaffuzi bilan yozilishi o‘rtasidagi uyg‘unlik mavjud bo‘lgani uchun bu tamoyil "sezilmasdan" qo‘llanadi.

Etimolgik hamda an’anaviy-tarixiy tamoyillar - yozuvda so‘z yoki so‘zshaklning hozirgi emas, balki tarixiy shaklini ifodalashiga asoslanadilar. Agar etimologik tamoyil til tarixi bilan bevosita bog‘liq hodisalarni ifodalash, tarixiy tamoyil yozuvdagi an’analarning saqlanishini ifodalaydi.

Morfologik tamoyil - grammatik kategoriyalar formantlari uchun yagona shakl tanlanishini va uning og‘zaki talaffuzi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘sha shaklda yozilishini taqozo etadi

**15-mavzu: Imlo qoidalarida harflar, asos va qo‘shimchalar imlosi to‘g‘risida.**

Imlo qoidalarida harflar, asos va qo‘shimchalar, imlo, asos va qo‘shimchalar imlosida ham yanada takomillashtirilish zarurligi, qoidalar. bog‘ga tarzida yozish qoidalashtirilgan, boshqa o‘rinlarda esa qanday talaffuz qilinsa, shunday yozish tavsiya qilingan, yagona tamoyil buzilgan. Yoki parvo, avzo tipidagi so‘zlarga egalik qo‘shimchalari qo‘shilishi.

**16-mavzu: Imlo qoidalarida qo‘shib yozish, chiziqcha bilan yozish hamda ajratib yozish to‘g‘risida.**

Qo‘shib yozish qoidalari ham qayta qarab chiqilishi lozim. Masalan, Orolbo‘yi, Buloqboshi, Kavkazorti kabi tarkibida bo‘yi, boshi, orti so‘zlari ishtirok etgan joy nomlarining yozilishi nazardan chetda qolgan. Hozirgi kunda vaqtli matbuotda turlicha yozib kelinayotgan bir qator so‘zlar qo‘shma so‘zlar bo‘lgani uchun qo‘shib yozilishi lozimligi, ajratib yozish qoidalari. Juft so‘zlar, juft so‘z qismlari orasidagi yuklamalartartib sonlar, arab raqamlari, qo‘shma fe’llar.

**17-mavzu: Bosh harflar imlosi hamda ko‘chirish qoidalari.**

Bosh harflar, atoqli otlar, joy nomlari, yulduz va sayyoralari bosh harflar bilan yoziladi. Gapning birinchi so‘zi bosh harflar bilan yoziladi. Shuningdek, Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san’at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, sport inshootlariga qo‘yilgan nomlar bosh harflar bilan yoziladi. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so‘z, Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining birinchi so‘zi, Davlatning oliy darajali mukofoti nomining har bir so‘zi bosh harflar bilan yoziladi. Ko‘p bo‘g‘inli so‘zning oldingi satrga sig‘may qolgan qismi

keyingi satrga bo‘g‘inlab ko‘chiriladi.

**18-mavzu: Lotin alifbosiga asoslangan xalqaro fonetik transkripsiya.**

Transkripsiya dialekt va shevalarda uchraydigan tovushlarning turli ko‘rinishlarini yozuvda ifodalash uchun qo‘llanadigan ma’lum belgilar tizimidir. Tildagi tovushlarni aniq ifodalash uchun xizmat qiladigan yozuv - transkripsiya, lotincha transcriptio - qayta yozish deb ataladi.

Transkripsiya uchun u yoki bu xalq iste’molidagi traditsion alfavitdan o‘rni bilan ma’lum bir o‘zgarishlar kiritish orqali foydalaniladi. Shuning uchun transkripsiyada belgilar soni o‘ziga asos bo‘lgan alfavitdagi harflar sonidan ko‘p bo‘ladi. Bugungi kunda tadqiqotlarda lotin hamda rus-krill alifbosi asosida qo‘llanadigan transkripsiyalar ishlatilmoqda. Mazkur ishda rus-krill alifbosi asosidagi transkripsiyadan olimlar foydalanishmoqda.

Transkripsiya ikki turga bo‘linadi:

1. Fonetik transkripsiya
2. Fonologik transkripsiya

**III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.**

1. “O‘zbek yozuv tarixi” fanining maqsad va vazifalari.
2. Yozuv va uning turlari.
3. Turkiy xalqlar foydalangan qadimgi runiy (urxun-enasoy) yozuvi
4. Qadimgi uyg‘ur yozuvi va ilifbosi
5. Arab yozuvi va alifbosi
6. Alfavit va imlo tushunchalari.
7. Jadidchilik va til-yozuv-imlo masalalari.
8. 20-yillar boshidagi yozuv va imlo islohotlari. Lotin yozuviga o‘tish: masalaning tarixi, sabablari, oqibatlari.
7. Krill yozuvining joriy qilinishi
8.Yozuvga isloh kiritishga urinishlar.
9.1993-yilda qabul qilingal lotin alifbosi va uning ahamiyati.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi 1995-yil 24-avgustda 339-sonli “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida”gi qarorning ahamiyati.
11. Yangi alifboni joriy etish: natijalar va saboqlar.
12. Amaldagi lotin alifbosining qulaylik va noqulayliklari.
13. Imlo masalasi.Orfografiya va uning tamoyillari.
14. Harflar, asos va qo‘shimchalar imlosi.
15. Qo‘shib yozish, chiziqcha bilan yozish hamda ajratib yozish.
16. Bosh harflar imlosi hamda ko‘chirish qoidalari.
17. Transkripsiya. Kiril va lotin alifbosiga asoslangan transkripsion belgilar.

**IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Yozuv va uning turlari.

| | |
|---|---|
| | 2. Turkiy xalqlar va ular foydalangan yozuvlar.<br>3. Orfografiya va uning tamoyillari.<br>4. Jadidchilik va til-yozuv-imlo masalalari.<br>5. Alfavit almashtirish davrining boshlang‘ich bosqichi.<br>6. Yozuv turini almashtirishga ta’sir qiluvchi faktorlar.<br>7. 20-yillar boshidagi yozuv va imlo islohotlari xususida.<br>8. Lotin yozuviga o‘tish: masalaning tarixi, sabablari, oqibatlari.<br>9.Turkiy xalqlarda alfavitni lotinlashtirish harakatlari. Ozarboyjon namunasi<br>10. 1926-yilda bo‘lib o‘tgan Boku Turkologiya qurultoyi qarorlarining ahamiyati.<br>11. Qurultoyda terminologiya masalasi.<br>12. 1929-yil may oyida Samarqandda o‘tkazilgan respublika yozuv-imlo konferensiyasi.<br>13. O‘zbek yozuvida rus grafikasi asosidagi alifboning o‘rni.<br>14. Yozuvga isloh kiritishga urinishlar.<br>15. 1993-yilda qabul qilingan o‘zbek lotin alfaviti.<br>16. Imlo qoidalari. Asos va qo‘shimchalar imlosi.<br>17. Orfografiya. Qo‘shib yozish, chiziqcha bilan yozish hamda ajratib yozish.<br>18. Orfografiya. Bosh harflar imlosi, bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari.<br>19. Orfoepiya va imlo.<br>20. Unli tovushlar talaffuzi va imlosi.<br>21. Undosh tovushlar talaffuzi va imlosi.<br>22. Transkripsiya.<br>23. Kiril va lotin alifbosiga asoslangan transkripsion belgilar. |
| 3. | **V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:<br>“O‘zbek yozuv tarixi” fani talabalarga O‘zbekistonda 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixi, bu islohotlarga olib kelgan tarixiy-siyosiy va ijtimoiy shart-sharoitlarga doir muayyan bilim beradi va savodxonlik darajasini oshirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega dasturi amal bo‘lib xizmat qiladi.<br>“O‘zbek yozuv tarixi” asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Ushbu fan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “Sotsiolingvistika”, “O‘zbek tilshunosligi tarixi”, “Tilshunoslik nazariyasi” fanlari bilimlariga asosan ish ko‘radi va aksincha, ushbu fanlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. |
| 4. | **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma‘ruzalar; |

| | |
|---|---|
| | • interfaol keys-stadilar;<br>• tarqatma materiallar;<br>• ko‘rgazmali qurollar;<br>• kompyuter;<br>• muammoli ta’lim;<br>• qiyosiy tahlil.<br>• turli xil nostandart testlar |
| 5. | **VII. Kreditni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar:**<br>1.Eltazarov J.D. O‘zbekistonda 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiolingvistik tahlil). –Samarqand: SamDU nashri, 2017 . -120 bet.<br>2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent. 2019.<br>3.O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari. – Toshkent. 1995.<br>**4.** Ўзбек тилининг имло луғати. Мадвалиев А., Бегматов Э; Муҳаррир Н.Маҳмудов. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 520 б.<br>**Qo‘shimcha adabiyotlar:**<br>1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq // Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998.<br>2.Боту. Тил ва имло масаласи устида бир неча сўз// Танланган асарлар. –Тошкент: Шарқ, 2004.<br>3.Botu. Til va imlo konferensiyasi yakunlari //Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2004.<br>4.Elbek. Yozuv yo‘llari // Tanlangan asarlar. –Toshkent: Sharq, 1999.<br>5.Elbek. Imlo masalasi // Tanlangan asarlar. –Toshkent, Sharq, 1999.<br>6.Fitrat. O‘rtoq Boybo‘latovga ochiq xat // Tanlangan asarlar, I, Toshkent, 2000.<br>7.Karimov N. Shoirning fojiali taqdiri // Elbek. Tanlangan asarlar.<br>8.Karimov N. Shoirning fojiali taqdiri // Botu. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 2004.<br>9.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi ( O‘zR MDA), f.47, 382-ish. |

| | |
|---|---|
| | 10.To‘raxo‘jayeva Sh. Lotin yoki kirill – qay biri ma`qul? Kun. uz portali > http://kun.uz/uz/18754060?q=%2F18754060 (February, 2017)<br>11.1921-yil yanvarda bo‘lgan birinchi o‘lka o‘zbek til va imlo qurultoyining chiqargan qarorlari. –Toshkent, 1922, 4-5 bb. (o‘zbek-arab yozuvida)<br>**Internet-manbalar**<br>O‘zbek tili jonkuyarlari guruhi > https://www.facebook.com/groups/ 1693547400972545/ permalink/1724607697866515/ (February, 2017)<br>http://kk.convdocs.org/docs/index-15702.html (February, 2017)<br>Kun. uz portali > http://kun.uz/uz/18754060?q=%2F18754060 (February, 2017)<br>http://kds.eparhia.ru/history/ (October, 2005)<br>http://www.japon.ru/?Text&ID=41895 (October, 2006)..<br>http://tdk.org.tr/kur.html (October, 2006).<br>http://ilin.sakhaopenworld.org/1999-12/50.htm (October, 2005)<br>http://ilin.sakhaopenworld.org/1999-12/50.htm (October, 2005)<br>http://www.hronos.km.ru/biograf/stalin.html (October, 2005)<br>http://www2.unil.ch/slav/ling/textes/Tezisy32.html (October, 2006). |
| 7. | Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O‘quv-uslubiy кengashining 2021-yil _____ ____-son bayonnomasi bilan ma’qullangan**.** |
| 8. | **Fan/modul uchun mas’ullar**:<br>Sh. Mahmadiyev – SamDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.<br>D.Islamova – SamDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>A.G‘afforov – SamDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsent, filologiya fanlari nomzodi (ichki),<br>X.Xayrullayev – SamDChTU kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (tashqi) |